

OLMOSHLI BIRIKMALARNING ILMUY USLUBDA QO'LLANILISHGA DOIR
AYRIM MULOHAZALAR

Yusupova Orziboni Sunnatovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Temirova Mohidil Komilovna
2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14866124>

Annotatsiya. Ushbu maqolada shu maqsadda, shuning uchun, shu bois, shu sababli, shuning natijasida, shu tarzda, shu tariqa, shunday qilib, shu ma'noda, shu bilan birga, shu jumladan, buning uchun, bundan tashqari, bizga ma'lumki kabi olmoshli birikmalarning ilmiy matnlarda qo'llanilishi o'r ganilgan. Bu birikmalarning qisqalik va mantiqiy izchillikni ta'minlash, fikrni boshlash yoki ta'kidlab ko'rsatish, jumla, abzas va mikromatnlarni bog'lash kabi bir qancha vazifalari ilmiy matnga xos misollar asosida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: olmoshli birikmalar, ilmiy uslub, umumlashtiruvchi bo'lak, ajratilgan bo'lak, bog'lovchi vosita.

SOME CONSIDERATIONS ON THE USE OF PRONOUN COMPOUNDS IN
SCIENTIFIC STYLE

Abstract. This article studies the use of pronominal combinations such as for this purpose, therefore, that's why, hence, as a result, in this way, thus, anyway, in this sense, at the same time, including, for this, in addition, as we know, in scientific texts. Several functions of these combinations, such as ensuring brevity and logical consistency, initiating or emphasizing a thought, connecting sentences, paragraphs and microtexts, are studied based on examples specific to scientific texts.

Keywords: pronoun combinations, scientific style, generalizing fragment, isolated fragment, connecting means.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО НАУЧНОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ
МЕСТОИМЕНИЙ

Аннотация. В этой статье, с целью, следовательно, поэтому, следовательно, в результате, таким образом, таким образом, таким образом, в этом смысле, более того, в том числе, для того, более того, насколько нам известно изучено употребление местоименных сочетаний в научных текстах. Некоторые функции этих соединений,

такие как обеспечение краткости и логической последовательности, начало или подчеркивание идеи, соединение предложений, абзацев и микротекстов, были изучены на основе примеров, характерных для научных текстов.

Ключевые слова: местоименные соединения, научный метод, обобщающее предложение, отдельное предложение, соединительный аппарат.

Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi ilmiy uslubning shakllanishiga asos bo‘lgan. Tabiat va jamiyatdagi faktlarni, narsa-hodisalarni bayon qilish, ularning voqe bo‘lish sabablari va o‘zaro munosabatlarini o‘rganish va izohlash bu uslubning mazmunini tashkil etadi. Monografiya, risola, darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, dastur, ma’ruza matnlari, ilmiy maqolalar, taqriz kabilar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy matnlar ko‘pgina adabiyotlarda ikkiga: ilmiy va ilmiy-ommabop matnlarga bo‘lib o‘rganiladi. Keng omma uchun mo‘ljallanganlik, tushunarli uslubda yozishga intilish ilmiy-ommabop matnlarni muayyan bir fan sohasi doirasida chegaralangan va faqat shu soha mutaxassislariga daxldor bo‘lgan ilmiy matnlardan farqlovchi belgilar bo‘lib hisoblanadi [Karimov, 2010: 31]. Azim Hojiyev esa bu uslub turlarini yanada aniqlashtirib quyidagi turlarga ajratadi: “Ilmiy uslub. Funksional uslubning bu turi terminologik va mavhum leksikaning, murakkab sintaktik tuzilmalarning qo‘llanishi, so‘zlarning asosan konkret, to‘g‘ri ma’noda qo‘llanishi, maxsus iboralarga egaligi va sh.k. bilan ajralib turadi. Ilmiy uslub o‘z ichida quyidagi mayda uslublarga bo‘linadi: ilmiy-texnik uslub, ilmiy-ish uslubi, ilmiy-ommabop uslub, ilmiy-publisistik uslub” [Hojiyev, 2002: 54]. Ilmiy uslubda fikr ifodalash usuli boshqacha bo‘lib, voqelikni, narsa va hodisani mantiqiy fikrlash, mushohada yuritish, muhokama qilish va isbotlash orqali izchil bayon etiladi. Bu uslubning o‘ziga xos xususiyatlarini monografik tarzda o‘rgangan olim M.Mukarramov aniqlik, obyektivlik, logik izchillik, neytrallik, qisqalik va to‘liqlik kabi omillar ilmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlari ekanini ta’kidlaydi [Mukarramov, 1984: 17]. Ana shu xususiyatlardan ayrimlari, ya’ni qisqalik va mantiqiy izchillikni ta’minlash uchun olmosh so‘z turkumi, olmosh ishtirokida hosil qilingan birikmalar katta o‘rin tutadi. Quyidagi ilmiy-ommabop hisoblangan darsliklardan olingan misollarda olmoshli birikmalar bir gap o‘rnida kelib, qisqalikni ta’minlash vazifasini bajarmoqda: *Mikroskopik texnikaning taraqqiy etishi 1950-yillarda mitoz va meyoz jarayonida xromosomalarning rolini o‘rganish imkoniyati yaratdi va shundan keyin molekulyar biologiya faniga asos solindi.* (Maxmudova Z. “Hujayra biologiyasi”, 15); *Ma‘lumki, qoraqat va zirkarda fellogen va undan hosil bo‘lgan periderma poya po’stlog‘ining ancha ichkarisida hosil bo‘ladi. Bunday hollarda*

yasmiqchalar to 'g 'ridan to 'g 'ri fellogen hujayralaridan ajralib chiqadi (Islomov B., Hasanov M. “Botanika”, 65).

Quyida, yuqorida, bu o 'rinda, shu o 'rinda kabi so 'z va birikmalar ilmiy bayonda mantiqiy izchillikni ta'minlash uchun qo'llaniladi: Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, xromosoma ikki xil funksional holatda, ya 'ni ishchi to 'liq dekondensatsiya holatida bo'ladi (Maxmudova Z. “Hujayra biologiyasi”, 127).

Olmoshli birikmalardan *shu singari, shu kabi* birikmalar uyushiq bo'laklarni umumlashtiruvchi bo'lak (so'z) vazifasini bajaradi: *Bu to 'qimalar organlarni shamol, qor va shu singari boshqa tashqi omil ta 'sirlaridan saqlaydi* (Islomov B., Hasanov M. “Botanika”, 74).

Ilmiy matnlarda *shuning uchun, shu bois, shu sababli, shuning natijasida buning uchun, shu tarzda, shu tariqa* birikmali o'zidan oldingi voqealari, hodisa sababini yoritish, izohlash, umumlashtirish uchun qo'llaniladi hamda gaplarni bir-biriga bog'laydi: *Ko 'pchilik hujayralarni oddiy ko 'z bilan ko 'rib bo 'lmaydi. Shuning uchun ham hujayrani o 'rganish mikroskopning taraqqiy etishi bilan bog'liqdir.* (Maxmudova Z. “Hujayra biologiyasi”, 5); *O 'simlik hayot manbai, shu bois tabiatdagi barcha tirik mavjudotlarni o 'simliklar olamisiz tasavvur etish qiyin* (Islomov B., Hasanov M. “Botanika”, 4). *Buning uchun birikmasi o'zidan oldingi gapdagi voqealari, hodisani qay tarzda yuz berishi sababini yoritishda bog'lovchi bo'lib keladi: Bu o 'simliklardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish botaniklardan ularni har tomonlama mukammal o 'rganishni talab etadi. Buning uchun o 'simliklarning qanday taksonomik birliklardan tashkil topganligini, hayoti, rivojlanishi, tashqi va ichki tuzilishi, tarqalishi, o 'sish sharoiti, turli omillarning ularga ta 'siri hamda o 'tmishini (paleontologiya) chuqur o 'rganish zarur.*

Fikrni tugatish, xuloslash maqsadida *shunday qilib, shunday xulosaga kelish mumkinki* birikmasi ilmiy matnlarda faol qo'llaniladi: *Shunday qilib, DNKdagi nukleotid ketma-ketligi nusxa sifatida RNKga ko 'chiriladi, ya 'ni berilgan DNKda joylashgan axborot to 'liq RNKga ko 'chiriladi* (Maxmudova Z. “Hujayra biologiyasi”, 59); *Shunday xulosaga kelish mumkinki, hujayra – bu ko 'p hujayrali organizmlarning yashash birligidir* (Maxmudova Z.V. “Hujayra biologiyasi”, 36).

Shu bilan birikmasi shunday qilib birikmasi kabi fikrni yakunlash, xulosalash uchun qo'llaniladi: Shu bilan yadroning bo 'linishi ham tamom bo 'lib, ikkinchisi, ya 'ni hujayraning bo 'linishi bosylanadi (Islomov B., Hasanov M. “Botanika”, 36).

Bundan tashqari birikmasi berilayotgan ma'lumotga qo'shimcha ma'lumotni berish uchun qo'llaniladi: *Birlamchi po 'st juda yupqa bo 'lib, u, asosan, pektinli moddalardan tuzilgan. Bundan*

tashqari uning tarkibida 10-12% ga yaqin sellyuloza, gemitsellyuloza va suv bo‘ladi (Islomov B., Hasanov M. “Botanika”, 47).

Shu jumladan birikmasi ilmiy matnlarda ajratilgan bo‘lak tarkibida keladi va asosiy so‘zni ajratib (murtak xaltasining hamma yadrolari, shu jumladan tuxum hujayra), ta’kidlab ko‘rsatadi: Keyinchalik ana shunday megasporadan hosil bo‘lgan murtak xaltasining hamma yadrolari, shu jumladan tuxum hujayra ham diploid xromosomli bo‘ladi (Islomov B., Hasanov M. “Botanika”, 158).

O‘zlik olmoshi ishtirok etgan o‘z vazifasi, o‘z kuzatishlari, o‘ziga xos, o‘z navbatida, o‘z ichiga oladi kabi birikmalarning ilmiy, ilmiy-ommabop matnlarda faolligi kuzatildi: *Barg plastinkasidagi mayda o‘tkazuvchi boylamlar parallel joylashgan kattaroq o‘tkazuvchi boylamlarga birlashadi. Ular esa o‘z navbatida barg bandiga o‘tadi, keyinchalik barg bandidan poyadagi ksilema va floema qismlarga o‘tib ildizning uchigacha yetib boradi* (Islomov B., Hasanov M. “Botanika”, 76).

Ilmiy uslubning taqriz janri asosan ilmiy manbaning yutuq va kamchiliklari nimadan iborat ekanligini baholaydi. Taqriz M.Mukarramov ta’kidlaganidek [Mukarramov, 1984: 27], monografiya, ilmiy maqola, dissertatsiyalarga yoziladi (bundan tashqari, darslik, o‘quv qo‘llanmalarga ham taqriz yozilishi mumkin), u bir kishi yoki bir necha kishilar tomonidan yozilishi mumkin. Taqriz janrida dastlab taqriz berilayotgan ilmiy manbaning ahamiyati asoslanadi va *bizga ma‘lumki, shu bois, shu ma’noda, shu sababli, shu maqsadda, shu jihatdan, shu nuqtayi nazardan, shu o‘rinda, shuni inobatga olgan holda, bundan tashqari* kabi olmoshli birikmalar qo‘llaniladi. Masalan, “Tilshunoslik nazariyasi” faniga doir fan dasturiga yozilgan taqriz matnida qo‘llanilgan birikmalar fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi: *Bizga ma‘lumki, “Tilshunoslik nazariyasi” fani til haqidagi mustaqil va aniq fan bo‘lib, tilning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot jarayonlari, qonuniyatlarini ilmiy asosda o‘rganadi. Bundan tashqari bu fan tilshunoslik fanida qo‘llaniladigan terminlar, tushunchalar tizimi bilan bizni tanishtiradi. Tilning boshqa hodisalar ichida tutgan o‘rni, tilning tuzilishi, umuman til haqidagi fanning asosiy tushunchalarini o‘rganadi. Shu jihatdan filologiya ta’limida bu fanni yaxshi o‘zlashtirish talab qilinadi.*

Ayrim hollarda bir uslubga xos til birliklari ikkinchi bir uslubda qo‘llanilishi mumkin. Bu holat olmoshlar va olmosh tarkibli birikmalarning uslublararo qo‘llanilishida ham kuzatiladi. Xususan, ilmiy uslubda keng qo‘llaniladigan *bizga ma‘lumki, shu bois, shu ma’noda, shu sababli, shu maqsadda, shu jihatdan, shu nuqtayi nazardan, shu o‘rinda, shuni inobatga olgan holda,*

bundan tashqari kabi birikmalar badiiy uslubda yozuvchining maqsadini ifodalash uchun vosita bo‘ladi. Masalan, Said Ahmad ushbu birikmalardan “Chekilmasin” hajviyasida unumli foydalangan va hajviya nomida ham taqriz so‘zi bo‘lib, “sahna asariga taqriz” sifatida shakllangan bu hikoyada ilmiy uslubga xos til birliklarining badiiy uslubda qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Yozuvchi bu usul orqali o‘z fikrini qoniqarli darajada kitobxonga yetkaza olgan. Said Ahmad g‘oya jigatdan juda bo‘sh, saviyasiz, tomoshabinga hech qanday ma’naviy ozuqa bermaydigan sahna asarlarini asar haqida taqriz yozish usuli bilan hajv qiladi, hajv yo‘li bilan tanqid qiladi. Ma’lumki, taqriz janrida dastlab taqriz berilayotgan ilmiy manbaning ahamiyati asoslanadi va *shu bois, shu ma’noda, shu sababli, shu nuqtayi nazardan* kabi olmoshli birikmalar faol qo‘llaniladi. Bu hikoyani ham yozuvchi shunday boshlaydi: *Mazmunning birlamchiligi va hokazolar haqida, ayniqsa, uning yetakchiligidan qo‘llanish haqida gapirish shu kunda, ayniqsa, ma’qul va maqbuldir. Mana shu nuqtayi nazardan qaraganda, shu kunlarda teatrımız sahnasida tomoshabin olqishiga sazovor bo‘layotgan dramaturg Polvoniyning yangi “Chekilmasin” asari, ayniqsa, xarakterlidir* (Said Ahmad. Tanlangan asarlar. II jild, 99). Asarning yantuqlari taqrizchi-muallif tomonidan sanalib (aslida bu ytuqlarni “yutuq” deb bo‘lmaydi), so‘ng uning kamchiliklari aytildi. Undan avval kirish gap sifatida yuqoridagi abzas keltirilgan. Ushbu abzasni avvalgi va keyingi abzasga bog‘lovchi vosita sifatida *shunga qaramay* birikmasi qo‘llanilgan: *Avtorning bu asari, albatta, bunday iliq-issiq gaplarga shubhasiz sazovordir. Lekin, shunga qaramay, asar ma’lum darajada juz’iy nuqsonlardan ham xoli emasligini aytmay o’tolmaymiz* (Said Ahmad. Tanlangan asarlar. II jild, 99).

Xullas, ko‘rsatish va o‘zlik olmoshi bilan shakllangan birikmalar ilmiy uslubda fikrni boshlash, ajratib ko‘rsatish yoki asoslashda, jumlalar, abzas va mikromatnlarni bog‘lashda keng qo‘llaniladi.

REFERENCES

1. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2010.
2. Maxmudova Z.V. Hujayra biologiyasi. Darslik. – Samarqand: SamDU nashri, 2020.
3. Islomov B., Hasanov M. Botanika. Darslik. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
4. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. –Тошкент: Фан, 1984. –Б.17.

5. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. II jild. Hajviyalar. Pyesalar. –Toshkent: Sharq, 2000.
www.ziyouz.com kutubxonasi.
6. Юсупова О. Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2017. –140 б.
7. Юсупова, О. С. (2011). Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари: Филол. фанл. номз.... дисс. автореф.
8. Юсупова, О. С. (2011). Вопросы прономинализации, конкретизации и актуализации в местоимениях. *Вестник Челябинского государственного университета*, (13), 154-158.
9. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. –Тошкент: ЎзМЭ, 2002. –Б.54.